



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2021 йил «18» октябрь

108-9-0-Q/21

Сирдарё вилояти ҳокимлиги

Viloyat hokimligi boshqaruvi tuzilmasida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sho‘basini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son Farmoni va “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-sentyabrdagi 05/1-1789-sonli topshirig‘ining ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. 2021-yil 1-oktyabrdan boshlab viloyat hokimligida viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati sho‘basi yetakchi mutaxassis shtat birligi hisobidan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sho‘basi tashkil etilsin va viloyat hokimligi boshqaruv apparati tuzilmasiga 1- ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritilsin.

2. Sirdaryo viloyati hokimligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sho‘basini faoliyati to‘g‘risidagi nizomi 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sho‘basi faoliyatida ochiqlik va shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, idoraviy chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga samarali tatbiq etish, xodimlar tomonidan kasbiy odob-axloq qoidalariga qat‘iy rioya etish, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini

olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish uchun mas'ul hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi (T.Sayfullayev):

viloyat hokimligi boshqaruv apparati shtatlar jadvaliga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni;

hokimlikning yangi tashkil etilgan tarkibiy bo'linmalari xodimlari uchun viloyat hokimligi binosidan alohida xonalar ajratishni hamda kompyuter, ofis texnikasi va zarur jihozlar bilan ta'minlashni tashkil qilsin.

5. Viloyat moliya bosh boshqarmasi (A.Raximov) tasdiqlangan shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazsin hamda yangi kiritilgan boshqaruv xodimlari uchun lavozim maoshi, davlat xizmatchisi sifatida lavozim maoshiga o'rnatilgan tartibda rag'batlantirish koeffisienti va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa to'lovlarni amalga oshirsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Karimov zimmasiga yuklatilsin.


Sidaryo viloyati hokimi



G'.Mirzayev

Сирдарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 18 октябрдаги
108-9-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

Сирдарё вилояти ҳокимлиги бошқарув аърағининг TASHKILY TUZILMASI



Bo'shliklar xoldagi bo'shliklar soni - 58 birlik.

* - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 iyulidagi "Tashkilotning samarali ishtirokida davlat bo'yicha o'rinbosarlar to'g'risida" qaroriga asosan qabul qilingan qo'shimcha qarorlar to'g'risida" PP-6234-son Qonunga muvofiq (Kodifikatsiya shartlari qabul qilindi);

** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldagi "Qo'shimcha bo'shliklar to'g'risida" PP-6166-son Qonunga muvofiq (Kodifikatsiya shartlari qabul qilindi);

*** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 avgustdagi "Bo'shlik bo'yicha davlat bo'yicha o'rinbosarlar to'g'risida" PP-6275-son Qonunga muvofiq (Ilovaga muvofiq qabul qilindi);

**** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi ma'muriy mas'ul bo'lgan bo'yicha o'rinbosarlar to'g'risida" PP-6257-son Qaroriga muvofiq (Ilovaga muvofiq qabul qilindi);

***** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 iyulidagi "Korrupsiyaga qarshi ma'muriy mas'ul bo'lgan bo'yicha o'rinbosarlar to'g'risida" PP-6257-son Qaroriga muvofiq (Ilovaga muvofiq qabul qilindi);

***** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi ma'muriy mas'ul bo'lgan bo'yicha o'rinbosarlar to'g'risida" PP-6257-son Qaroriga muvofiq (Ilovaga muvofiq qabul qilindi);

***** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi ma'muriy mas'ul bo'lgan bo'yicha o'rinbosarlar to'g'risida" PP-6257-son Qaroriga muvofiq (Ilovaga muvofiq qabul qilindi);

***** - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi ma'muriy mas'ul bo'lgan bo'yicha o'rinbosarlar to'g'risida" PP-6257-son Qaroriga muvofiq (Ilovaga muvofiq qabul qilindi);

Сирдарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 18 октябрдаги
108-9-0-Q/21-сон қарорига
2-илова

Sirdaryo viloyati hokimligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat shoʻbasini faoliyati toʻgʻrisidagi

NIZOM

Ushbu Namunaviy nizom Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-5177-son qaroriga muvofiq viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat qilish shoʻbasining (bundan buyon matnda Nazorat shoʻbasi deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Nazorat shoʻbasi oʻz faoliyatida Oʻzbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, oʻzlari faoliyat yuritayotgan davlat organlari va tashkilotlari rahbarining qarorlari, buyruqlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Namunaviy nizomga amal qiladi.

2. Nazorat shoʻbasi viloyat hokimligi, shahar va tumanlar hokimliklarida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish choralarini koʻrishga masʼul hisoblanadi.

2-bob. Viloyat hokimligi Nazorat shoʻbasini tashkil etish

3. Nazorat shoʻbasi oʻz faoliyatida bevosita viloyat hokimiga boʻysunadi.

4. Nazorat shoʻbasi boshligʻi hokimlik tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) bilan birgalikda oʻtkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

5. Nazorat shoʻbasi rahbarini lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishiladi.

Bunda, hokimlik tomonidan Agentlikka viloyat hokimining Nazorat shoʻbasi boshligʻi lavozimidan ozod etish haqidagi taqdimnomasi beriladi.

Ushbu taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari ko'rsatiladi. Taqdimnomaga xodimning lavozimidan ozod etish sabablari va motivlarini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va boshqa shu kabi hujjatlar) ilova qilinadi.

6. Agentlik tomonidan Nazorat sho'basini boshlig'i lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblansa, shu jumladan Nazorat sho'basini boshlig'i ta'qib qilinayotganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lsa, ushbu masalada Nazorat sho'basini boshlig'i bilan suhbat o'tkazilishi mumkin.

7. Quyidagilar Nazorat sho'basini boshlig'ini lavozimidan ozod etishni kelishishni rad etish uchun asos bo'ladi:

Nazorat sho'basini boshlig'ini lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

Nazorat sho'basini boshlig'ining zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o'ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta'qib qilinganligi holati aniqlanganda.

8. Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko'rib chiqilib, viloyat hokimligiga Nazorat sho'basini boshlig'ini lavozimidan ozod etishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko'rsatilgan xat taqdim etiladi.

3-bob. Nazorat sho'basining asosiy maqsadi, vazifa va funksiyalari

9. Nazorat sho'basining asosiy maqsadi hokimlikda, shuningdek, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida (bundan buyon matnda hokimlik tizimi deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha 18037001: 2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, hokimlik tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, hokimlik tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik choratadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

10. Quyidagilar Nazorat sho'basining asosiy vazifalari hisoblanadi:

hokimlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;

hokimlikda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

hokimlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

11.Nazorat sho'basini o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) hokimlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

hokimlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

hokimlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun viloyat hokimiga kiritadi;

hokimlikning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

hokimlik tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini hokimlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazardan baholaydi va xulosalar beradi;

hokimlikda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni Agentlikka kiritib boradi.

b) hokimlikda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

hokimlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va tashkilotda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan

lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

hokimlik tomonidan o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy xuquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali hokimlik xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va xuquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

hokimlikda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reyestri yoki o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'lik aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va hokimlik bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

hokimlik xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni hokimlik xodimlariga yetkazadi;

hokimlik faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibliigi va yetarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida hokimlikda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda va viloyat hokimi talabiga ko'ra hokimlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy

holat haqida viloyat hokimiga ma'lumot kiritib boradi;

v) hokimlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida hokimlikga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

hokimlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining 18037001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

hokimlik xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

hokimlik xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq hokimlikning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat kiladi;

hokimlik tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

hokimlikning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" sho'basi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

hokimlik tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va hokimlikning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

hokimlik tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

odob-ahloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

hokimlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilma(shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

hokimlik faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

g) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan hokimlik zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

hokimlikning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

Nazorat sho'basini qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

12. Nazorat sho'basiga va ularning xodimlariga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarning yuklatilishiga yul qo'yilmaydi.

4-bob. Nazorat sho'basining huquq va majburiyatlari

13. Nazorat sho'basini o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'zi faoliyat yuritayotgan hokimlik xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida hokimlik xodimlaridan zarur yordam surash va olish;

hokimlik tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

hokimlik rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'z faoliyati doirasida hokimlik tizimiga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

hokimlikning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.

Nazorat sho'basi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14. Nazorat sho'basi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

hokimlik tizimida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri yuqori turuvchi organ, Agentlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

hokimlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan viloyat hokimiga ma'lumotnomalar kiritish;

har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi choraklik hisobotni Agentlikka taqdim etish;

Nazorat sho‘basi boshlig‘i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

15. Nazorat sho‘basi xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo‘ljallangan o‘quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. O‘quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar hokimlik yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.

16. Nazorat sho‘basi faoliyatining natijadorligi hokimlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

Nazorat sho‘basi faoliyatining maqsadli ko‘rsatkichlari viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanadi.

Nazorat sho‘basi faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

17. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.